

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

*Tarix fakulteti "Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 402-
guruh talabasi*

Mirzayev Abdumo'minning



REFERAT

***Mavzu:* Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-
siyosiy vamadaniy-ma'naviy omillari**

Ilmiy rahbar: Mirzayev A.
Kafedra mudiri: M . Sobirova

TOSHKENT-2014

Mavzu: **Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy omillari**

REJA:

I. Kirish

II. Asosiyqism

1) Mustaqillikva millatlararo munosabatlar.

2) Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy omillari

3) Millatlararo munosabatlarning madaniy-ma'naviyomillari.

III. Xulosa

IV.Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Har bir inson yoshligidan ezgu-orzular bilan yashaydi, xalqiga, Vataniga foydasi tegadigan kishi bo'lib yetishishini o'ylaydi. Bu ayni payitda uning ko'nglida komil inson bo'lish ishtiyoqi borligidan dalolat beradi. Demak, kimki oldinga qarab intilsa, yuksak orzular bilan yashasa, u tom manoda o'sib ulg'ayib, mukammallashib fazilati ortib boraveradi. Kimningki fazilati ortib, yaxshiligiga yaxshilik qo'shilib boraversa, u o'zi ham sezmagan holda kommilikka yaqinlashadi. Aksincha hech kim hech narsani orzu qilmasa, o'z hayoti bilan mag'rurlanib, hech kimni tan olmay, o'zini dono bilib, oldinga intilmasa, u o'sishdan ulg'ayishdan to'xtaydi. Borgan sari tubanlashib ketaveradi. Fazilat o'rniga nuqsonlari ko'zga tashlanib qola boshlaydi. Bu uning nomukammalligini kursatadi.

Birdamlilik xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjixatligini taminlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafoloti vujudga keladi.

Qarashlar rang-barangligi, fikrlar xilma-xilligi, so'z va fikr erkinligi jamiyatni sog'lomlashtiruvchi, uni mustaxkamlovchi o'ta muhim omildir. Biroq-bu, hayolga kelgan gapni aytish, ko'ngil tusagan ishni qilish, o'z manfaati uchun hamma narsaga tayyor turish, degani emas. Bundan tashqari, erkin fikr degani, albatta to'g'ri fikr degani emas.

Fikr erkinligi umummanfaat, umumjamiyat taraqqiyoti yo'lidagi sog'lom fikr yuritish, iymon-etiqo yuzasidan ish tutish, demakdir.

Ulug' bobokolonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», deb ta'kidlagan.

Har bir yurtdoshimiz manfaatlaridagi mushtaraklikdan hosil bo'luvchi umumiy maqsad va unga erishishga qaratilgan harakat, jamiyat azolarining birdamligidir.

Yurtimizdagi har bir insonning o'zini mana shu ulug' mamlakat fuqorosi, mana shu mamlakatda yashaydigan buyuk xalqning vakili deb his etishiga xizmat

qiladi. Yurtdoshlarimizning o'zaro yelkadosh bo'lib, bir-birini qadirlashi, Vatanimiz manfaatlariga zid ishni o'z manfaatiga zid ish deb bilishi, o'z manfaatiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni el-yurt manfaatlariga qarshi qaratilgan deb tushunishi, jamiyatimizdagi umumiy birlikni yanada mustaxkamlaydi.

Mavzuning maqsadi. Yurtimizda mustaqillik va millatlararo munosabatlarni tahlil qilish hamda millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy omillarini aniqlash.

Mavzuning vazifalari quyidagilardan iborat :

- mustaqillik va millatlararo munosabatlarni tahlil qilish ;
- millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy omillarini aniqlash ;
- millatlararo munosabatlarning madaniy-ma'naviy omillarini ilmiy tahlil qilish.

1. Mustaqillik va millatlararo munosabatlar

Mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Ma'lumki, qadimiy Turkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiy mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, hasadu havasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtahalarini avj oldirib kelgan. Bu yurtga, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchi galalar bostirib keldi va xalqini asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. Har safar bu erning vatanparvar xalqi o'z vatani mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiy davrlardan boshlab dushmanlarga qarshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosi yoki V asrda Eftalitlar bosqini, Eron shohlari va Yunon-makedon imperatorlarining, arablar va tatar-mo'qil bosqinchilarining istilochilik qarakatlarini eslab o'tishi kifoyadir.

Dushmanlarga qarshi olib borilgan kurashlar haqida gapirganda, Kayxusrav boshchiligidagi Eron bosqinchilariga qarshi kurashda ayol bo'lsa-da, xalqi uchun mardlik va qahramonlik ko'rsataolgan dovyurak To'marisni eslamay ilojimiz yo'q. qech narsadan tap tortmay, o'z xalqini qimoya qilgan, yurti, ona tuproqini qar narsadan ustun qo'ygan, dushmanning makr-xilasini ziyraklik bilan sezgan bu ayol qaqramonligi tarix saqifalarida abadiy muqrlangan.

Erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlikni buyuk maqsad deb bilgan, ana shu niyat yo'lida o'zining shaxsiy baxti va quvonchidan, jonu jaqonidan o'z qoxishi ila voz kechgan Shiroqning Turon eliga bostirib kelgan podsho Doro qo'shinlarini aql-idrok ishlatib enganligini tarix qech qachon unutmaydi. Shiroqning buyuk jasorati asrlardan asrlarga o'tib tillarda doston bo'lib kelmoqda.

Mustakillik O'rta Osiyo xalqi uchun doim orzu bo'lib keldi. Bosqinchilarga qarshi kurash, erk va mustaqillik uchun kurash qayot-mamot janglari o'tmishida bu yurt uchun bir laqza bo'lsa-da tingani yo'k. Buni Aleksandr Makedonskiyga qarshi xalqimizning asl farzandi Spitamen raqnamoligida olib

borilgan kurashlar misolida qam kurish mumkin. Iskandar qarbiy jiqatdan ustun bo'lsa-da, Spitamenni jang maydonida engal olmaydi, balki xoinlar qo'li bilan qatl ettirdi. qatl ettirdi-yu, ammo Spitamenning jasorati, mardligiga uning o'zi qam tan berdi.

Vatan takdiri, ona yurt tuproqini muqaddas bilish, uning ozodligi, istiqboli uchun kurash tuyqusi xalqimizning qon-qoniga, ruqiyatiga chuqur singib ketgan. Ular qullikdan ko'ra, istiqlool uchun, qur yashash uchun, Vatanning ozidligi uchun jon fido qilishni afzal ko'rib yashashgan.

VIII asrda O'rta Osiyoga bostirib kirgan arablar qam ana shunday fidoiy odamlar qarshiligiga duch keldi. Arablar bilan bo'lgan janglarda minglab odamlar shaqid ketdilar. Istilochilar zo'rlik, xunrezliklar bilan yurtimizni bosib oldi. Ular ko'plab qishloq va shaqarimizni vayron etdilar, boyliklarimizni taladilar, minglab odamlarni qirdilar, qullik iskanjasiga soldilar. Eng achinarlisi shundaki, xalqimiz tomonidan yaratilgan jamiki boyliklarni, ma'naviy xazinalarimizni er bilan yakson qilishdi, maqalliy yozuvlarimiz, qadimiy kitoblarimiz, tilimizni, qatto urfodatlarimiz va milliy qadriyatlarimizni siqib chiqardi.

Bu haqda buyuk allomalarimizdan Abu Rayxon Beruniy o'zining "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday degan edi: "qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilmini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'qqilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, qaqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi"¹.

Arablarga qarshi kurash xalq tomonidan ko'tarilgan qo'zqalonlarda o'z aksini topdi. Bu qo'zqalonlardan eng kattasi 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand, qashqadaryoda bo'lgan, keyinchalik butun Movourannaqrning barcha qududiga yoyilib ketgan Muqanna boshchiligidagi qo'zqalondir. Qo'zqalon garchi maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, lekin bosqinchilar saltanatini larzaga keltirdi, xalqimizning ozodlik va mustaqillik dushmanlariga bo'lgan qaqr-qazab va nafratini avj oldirib, ona Vatanga bo'lgan farzandlik meqr-muqabbatini kuchaytirib yubordi.

Arablar bosqini davridan ko'p o'tmay, XIII asrning birinchi yarimida O'rta Osiyo yana bosqinchilar istilosi girdobida qoldi. Endi Chingizxon boshliq tatar-mo'qul galalariga qarshi kurashishga to'qri keldi. Tarixning shu davriga oid saqifasini varaqlar ekanmiz, Muqanna kabi Vatan uchun jon fido qilgan, qullik va mut'elikdan ko'ra ozod bo'lib o'lishni afzal ko'rgan. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Maqmur Tarobiy, Shamsiddin Maqbubiy kabi xalqqaqramonlari ko'rsatgan jasoratlarini o'qiymiz. Garchi ular tomonidan olib borilgan qarshiliklar maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, ularning ko'rsatgan jasorat va mardliklari keyingi avlodlarga na'muna, qattoki, yo'lchi yulduz kabi, mustaqillik uchun kurash yo'li bo'lib qoldi.

Muqullar mo'ri-malaxdek yopirilib, Movouronnaqr shaqar va qishloqlarini vayrona etar ekanlar, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va Maxmur Tarobiylar soni kundan-kunga ko'payib bordi. Tarix saqifasida Sarbadorlar qarakati deb nom olgan qarakat qam ana shu bosqichi muqullarga qarshi yuzaga kelgan qarakat edi.

Bu qarakat ishtirokchilari-xalq ziyolilari, qunarmandlari va oddiy qarbiylar edi. Vatanimizdagi eng yirik Sarbadorlik qarakati 1365 yilda Samarqand shaqrida yuz berdi va katta muvoffaqiyat qozondi. "Sarbador" so'zi- «boshini dorga tikkan». degan ma'noga egaligidan ko'rinib turibdiki, ular istiqlol yo'lida jon fido qilishga aqd qilgan kishilar edi. ¹

Movourounnaqrda mo'qullar bosqiniga dastlab qalabaga erishganlar qam Sarbadolar bo'ldi. "Ular tub xalqning mislsiz kuch-qudratiga ishonchini uyqotdi va agar birlashsa, bosqinchilardan Turonzaminni xalos etish mumkinligini ko'rsatdi"¹

Mo'qullarga qarshi qarakat faqat Samarqandda emas, xol buki bunday xarakat 1373 yilda Karmanada qam yuz bergan. Demak Sarbadorlar qarakati favqulotda qodisa emas, u Movourounnaqrda keng tomir yoygan xalq ozodlik xarakati bo'lgan.

¹A.R.Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent 1968 yil 72- bet

Mo'qullar bosqiniga qarshi sarbadorlardan aloqida Temurbek va amir Xusaynlar qam o'z qo'shini bilan jang qildilar. Tarixda "loy jangi" deb nom olgan bu jangda ular mo'qullardan engilib, Amudaryo soqiliga chekinishga majbur bo'ldilar. Sarbadorlarning muvoffaqiyatini eshitib Temurbek va amir Xusayn Movourounnaqrga, aniqroqi, Samarqandga qaytib sarbadorlar sardorlari Mavlonzoda va Abu Bakr Kalaviy bilan uchrashdilar. Ammo, Sarbadorlarga nisbatan qayrligi bo'lgan amir Xusayn ularni o'ldirishga urinadi. Temurbek to'xtatib qoldi. Chunki uning Sarbadorlarga nisbatan ko'nglida qech qanday yomonligi yo'q edi.

Temurbek Sarbadorlar tamonidan o'tkazilayotgan isloqatlarni qo'llab-quvvatlar ekan, kelgusida Movorounnaxrning ozod va osoishta mamlakatga aylanishida Mavlonzodadek mard va vatanparvar kishilar zarurligini bilar edi.

Mamlakatni 145 yil ezib kelgan muqul bosqinchilaridan butunlay ozod etish taqdir taqozosi bilan Temurbek zimmasiga tushdi. U muqullarga qarshi olib borilayotgan kurashda mudom pand berib kelayotgan amir Xusayndan xolos bo'lganidan so'ng, muqullarga qarshi kurashni butunlay o'z qo'liga oldi. O'zining usta sarkardaligi, favqulotda tadbirkorligi bilan, o'ta kuchli iste'dodi orqali butun bir xalqni dushmanga qarshi otlantira oldi.

Shu o'rinda I.Karimovning quyidagi so'zini eslab o'tishimiz lozim. "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deyilar. Bunda qo'shimcha qilib soqibqiron bobomizning suronli qayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayqusi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin".

Darqaqiqat, Amir Temurning Turkiston tarixi oldidagi xizmati shundaki, u Turonzaminni mo'qul istibdodidan xalos etdi, unga yana qaytadan qayot baxsh etdi. Bu erda qudratli markazlashgan davlatni barpo etib, Vatanni ozod, obod, farovon, osoyishta mamlakatga aylantirdi.

2. Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy omillari

Milliy ma'naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu tushunchani bilib olishni «millat» tushunchasini izohlashdan boshlash maqsadga muvofiq.

«Millat» so'zi «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma'noni bildiradi. «Millat» so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi: birinchi - din, mazhab; ikkinchi - ummat; uchinchi - xalq, qavm. Millat so'zi qur'oni Karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, o'z millatidan, qavmidan kechib, boshqa millatga o'tib olishi esa gunoh deb ta'riflangan.

Evropa adabiyotida qo'llaniladigan «natsiya» so'zi esa qabila, xalq degan ma'noni bildiradi. Binobarin, bu ikki tushunchada ham asosan muayyan etnik birliklarning o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi.

Har bir milat o'z tarixiga, o'z milliy xususiyatlariga, ma'naviyatiga ega. Millat ma'naviyati shu millat milliy ma'naviyati hisoblanadi. Shuningdek, ma'naviyatni uch guruhga bo'lish mumkin, yani, birinchisi - milliy ma'naviyat, ikkinchisi - mintaqaviy ma'naviyat, uchinchisi - umuminsoniy ma'naviyat.

Milliy ma'naviyat- muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir. Masalan, o'zbek millatiga xos ma'naviy boyliklar.

Mintaqaviy (regional) ma'naviyat- muayyan jug'rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi, yoki yanada kengroq doirada oladigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin.

Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy ma'naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda

muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi.

Milliy ma'naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy ma'naviy kamolot zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari emiriladi, ammo ma'naviyat yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiaiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmuni jihatdan o'zi etishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Milliy ma'naviyat erishgan kamolot bosqichini yo'qotish uchun (shu jumladan, umuman milliy ma'naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib - manqurtga aylantirish kerak bo'ladi.

Millat mavjud ekan, milliy ma'naviyat bo'ladi. Milliy ma'naviyatni yo'qotish mumkin emas. Milliy ma'naviyatni yo'qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma'naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yo'qotish mumkin emas. Ko'rinadiki, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqe'likdir. Inson ma'naviy olami o'lchamlari cheksiz bo'lib, uni hech bir narsa bilan o'lchash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma'naviyat avvalo milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo'g'imi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o'zlikni anglash sari etaklaydi.

Milliy ma'naviyatning asosiy belgi va o'zagi - milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizdagi belgilar boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo'ladi.

Milliy ma'naviyatda - milliy his, tuyg'u, ruhiyat ham muhim o'rin egallaydi. Chunonchi, zamona taqozosi bilan boshqa yurtga safarga borgudek bo'lsak va o'sha erda milliy kuy, qo'shiqni eshitgudek bo'lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg'u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil etamiz, ya'ni ma'naviy ozuqalanamiz.

Milliy ma'naviyatda milliy manfaat ham muhim rol o'ynaydi. Sobiq Sho'rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo'yganlar va milliy manfaat yuzasidan harakat qilgan kishilar, rahbarlar va yozuvchilar millatchi sifatida qatog'on qilinganligi ma'lum..

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. Bularga o'zbek xalqining o'zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan-avlodga o'tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma'naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an'ana, marosimlar, axloqiy pand-nasihatlar va hokazolar kiradi.

O'rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o'zbeklarda qadrlangan, o'zbekona axloq, odobga oid ma'naviy fazilatlar haqida ko'plab qimmatli fikr, ma'lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'zbeklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, hayolilik, sahiylik, odamiylik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

O'rta Osiyoga sayohatga kelgan German Vamberi «Buxoro yoxud Mavorounnahr tarixi» asarida Oltin O'rdadagi o'zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqda og'ir vazminligini, oq ko'ngillilik va samimiyligini, kamgapligini, sadoqatliligini, dovyurakligini, shinavandaligini,

oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligi, andisha bilan to'g'ri so'zlashishini, ota-onaga hurmati va e'tiqodi kuchliligini, birinchi bo'lib o'tirmaslik va birinchi bo'lib so'zlashmasligini, mug'ombirlikni bilmasligini, dinga e'tiqodi kuchli bo'lib, bu jihatdan anatoliyalı turklarga o'xshashligini ko'rsatgan.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib, ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslilik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy - axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayollarning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatları, ota-ona, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqaları, halollik, iymon, vijdon, sadoqat bilan bog'liq ma'naviyati hozirgi kunda ham eng ezgu fazilatlar sanaladi.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan-avlodga o'tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat bobida sharqona, o'zbekona fazilatlarını tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug'larni va kichiklarning izzatini o'z o'rniga qo'yish, hurmat qilish ham milliy ma'naviyatimizga kiradi. Bu yo'l istiqbol va istiqbol muammolarini o'tmishning boy tajribasi bilan bog'lashga yaqindan yordam beradi.

Odatda kishilar ko'pincha ikki ishda katta xatoga yo'l qo'yadilar. Birinchisi - yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi - keksalarni qariya deb chetga surib qo'rganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog'liq bo'lgan katta tashabbus, kuch va g'ayrat bo'ladi. Keksalar esa hayot yo'lida ko'p issiq va sovuq kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda uzoqni o'ylab, bosiqlik bilan ish qilish, etti o'lchab bir kesish singari ma'naviy boylik va etuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «qari bilganni pari bilmas», degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g'ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Kexsa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir. Kexsa avlodning hayot tajribasini mensimaslik hamma davrlarda ham jamiyat uchun falokatli oqibatlarga olib kelgan. Chunonchi, 1920-30 yillarda hali hayotda biror og'ir saboqni ko'rmagan, baland-pastni bilmagan 15-17 yoshlik komsomollar ko'plab ishbilarmon, mehnatsevar dehqonlarni quloq qilish, molu-mulkini musodara etib, uzoq erlarga badarg'a qilish vazifasini o'z zimmasiga olgani ham katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy bo'xronlarga sabab bo'ldi. Hozir ham keksalarning qadriga etmaydigan, ularni mensimaydigan yoshlar yo'q emas. Bu o'zbek milliy ma'naviyatidagi salbiy holat, illatdir, uning oldini olish zarur.

Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an'analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi, ularni ma'naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlarining, jumladan o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofat sifatida qoralandi. Natijada, odamlar orasida xudosizlik, iymonsizlik ildiz otdi. Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan evropacha

an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o'z farzandini o'ldirib yashirish), xudbinlik, maishiy buzuvchilik, giyohvandlik kabi ma'naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi. Endi o'ylab ko'ring, diniy bilimga ega bo'lmagan, haloh va harom, gunohu savobning farqiga bormagan odamlarda iymon mustahkamligi bo'ladimi?

Ma'lumki, xalqimiz azal-azal farzandlar tarbiyasiga alohida e'tib qaratib, tarbiyada diniy va dunyoviy g'oyalarga asoslangan. Tarbiya sohasida ayniqsa ulug' allomalarimiz qarashlari, taniqli ma'rifatparvar ziyolilarimiz fikrlari muhim ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. *«Tarbiya, - degan edi Abdulla Avloniy, - bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir»*¹. Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolat orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Umuminsoniy ma'naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat uzoq va yaqin o'tmishda va hozirda juda qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklariga ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san'at asarlari, kashfiyot va ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat ham doim qadimiy va navqiron bo'lib turaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb

¹Avloniy A. Tanlangan asarlar.T. : "Ma'naviyat", 2004. 32-bet.

ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalash imkoniyatlari va u haqda g'amxo'rlik qilish kabi ma'naviy mas'uliyat o'z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik kabi ma'naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma'naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O'zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik qilish ham umuminsoniy ma'naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilallik ham umuminsoniy ma'naviyat tizimidan o'rin olgandir.

Yuqoridagi ma'naviyat tushunchalarining millati yo'q. U hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyatda biz milliy ma'naviyatning eng olijanob, eng yuksak ko'rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko'ramiz.

O'z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buzilgan zamonaviy ilg'or millat haqida orzu qilish mumkinmas. Umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig'idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko'rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma'naviyat bo'lmasa umuminsoniy ma'naviyat yo'q, umuminsoniy ma'naviyatlarsiz esa hozirgi zamon ilg'or millatlari yo'q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Islom Karimov aytganidek: *«Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan*

mujassam»¹. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat hozirgi zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini hisobga olishimiz davr talabi. Zero, mustaqillikni mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma'naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish negiziga qurmog'imiz lozim. Bunda esa mamlakat xalqi birdamligi, hamjihatligi muhim o'rin tutadi. O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolishda bizning qonun bazamiz yaqindan yordam bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: «*O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi*»¹, - deb ta'kidlanadi. O'zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning xuquqlarini himoya qilish davlat konsepsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, «*O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi*»². Mustaqillik yillari millatlararo ma'naviy va madaniy-ma'rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlantirilib kelinmoqda. Shu yillar maboynida milliy uyg'onish jarayoni faqat o'zbeklar orasidagina kechib kelmayotir, O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik - madaniy, ma'naviy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda. 1989 yildayoq jamoat tashkilotlari - milliy-madaniy markazlar tashkil etila boshlagan edi. Hozir Respublikada 80 dan ortiq milliy-madaniy markaz mavjud. Bularidan ba'zilarining ro'yxatini keltiramiz: O'zbekiston Respublikasining koreys madaniy markazlari Assotsiatsiyasi (1993 y); Qozoq madaniy markazi (1995 y); Qirg'iz madaniy markazi (1995 y); O'zbekiston

¹Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodagiga ishonaman..«Fidokorp», 2000, 8-iyun.

²O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. : "O'zbekiston", 2005. 56-bet.

nemislarining «Videgerburt» madaniy markazi (1994 y); Rus madaniy markazi (1994 y); O'zbekiston «Axisxa» turk madaniy markazi (1997 y) va boshqalar. O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o'ynamoqda.

Bizning jamiyatimiz etnik guruhlar va millatlar o'rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli deb his qilishi imkonini beradigan o'zaro munosabatlar o'rnatishga intilmoqda. Yurtimizda milliy ayirmachilikning har qanday ko'rinishlari qoralab kelinmoqda. Milliy kalondimog'lik g'oyat zararli, biz ulardan yiroq bo'lishimiz kerak... Chunonchi milliy kalondimog'lik kasaliga yo'liqqan kishilar o'z milliy ma'naviyatini bilib, boshqa millat ma'naviyatini tan olmaydilar. Bunday munosabat tamomila noto'g'ri. Ular jahon xalqlari ma'naviy merosi o'rtasidagi aloqadorlikni, bir-birini boyitishini bilmaydilar. Milliy mahdudlik, xudbinlik kasaliga chalingan kimsalar esa - mening millatim ma'naviyati, madaniyati bo'lmaganda jahon madaniyati, ma'naviyati bo'lmas edi, degan g'oyat zararli qarashni, g'oyani ilgari surib, himoya etadilar. Mustaqillik sharoitida bunday zararli g'oyalarni ilgari surish va himoya etishga intilish millatlararo munosabatlarning negiziga putur etkazadi, milliy totuvlikka rahna soladi. Biz qanchalik o'z madaniyatimiz, ma'naviyatimizni hurmat qilmaylik, shu bilan birga boshqa millatlar, jahon xalqlari ma'naviyatiga ham hurmat bilan qarashimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlari haqida uzoq gapirish mumkin.

3. Millatlararo munosabatlarning madaniy-ma'naviy omillari

Bugun mustaiil O'zbekiston ijtimoiy plyuralizm, hayotni erkinlashtirish, mulkning turli shakllari teng-huiuililigini huiuiiy kafolatlash yo'lidan bormoida. Bunday jamiyatda esa turli ijtimoiy guruhlar, tabaialar, sinflar brlishi

muaiarrar.Ularning rz itisodiy va siyosiy manfaatlari bir-biridan muayyan darajada fariilishi ham tabiiy. Lekin bu holat millatni brlib yubormasligi lozim. Vatanimizda olib borilayotgan siyosat uni turli inqilobiy keskinliklarsiz, ijtimoiy adovatni avj oldirmasdan iaror toptirish imkonini berib, hamkorlik va tinch-totuvlik uchun sharoit tuIdirmoida. Ijtimoiy hamkorlik jamiyatdagi barcha kishilar, partiyalar, toifalar bir xil fikr yuritsin, degani emas. Aslida har bir ijtimoiy kuchning dunyoiarashi, manfaatlari turlicha brladi va binobarin, ular bir-biridan fariiladi. Lekin bular uchun umumiy yrnalish yagona Vatan ravnaii, yurt tinchligi, xali farovonligi brlib iolaverishiga erishish nihoyatda muhim.

Turli ijtimoiy guruhlar manfaatini himoya ilishga bel bollagan, rz dasturini e'lon ilgan partiya va jamoat tashkilotlari rz faoliyat doirasidagina a'zolari manfaatini himoya ilishi mumkin, xolos. Biroi umumiy manfaat – xali, jamiyat, Vatan manfaati singari eng oliy iadriyatlar borki, barcha siyosiy partiyalar, Ioyalar va mafkuralar ana shu umumiy asoslarda birlashadi. Jamiyat kimning ianday partiya yoki harakatga mansub brlganiga iarab emas, el-yurt, tinchligi, Vatan ravnaii, xalq farovonligi yrlida ilayotgan amaliy ishlariga iarab baho beradi.

SHunday iilib, jamiyatni sun'iy ravishda brlib, turli iarama-iarshiliklarni mutlailashtiradigan ta'limotlardan farili rlaroi, milliy istiilolimizning ijtimoiy hamkorlik Ioyasi turli partiya, din qatlamiga mansub xilma-xil jamiyat a'zolari iarashlaridagi tabiiy rang-baranglikni uyg'unlashtiradi va umumiy taraiiiyot manfaatlariga brysundirishga xizmat qiladi.

Bu ianday shakllarda amalga oshiriladi?

Birinchidan, jamiyatning eng ustuvor maisad va manfaatlarini rzida mujassam etadigan illor Ioyalar milliy taraiiiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh rzining dasturiy maisadlari va amaliy faoliyatini ana shu ustuvor milliy Ioyalar bilan uyIunlashtirishi milliy taraiiiyotning zaruratiga aylanadi.

Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy maviei, dunyoiarashi va e'tiiodidan iat'i nazar, jamiyatning ustuvor maisad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy Ioyalarning amalga oshishi uchun rzini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Aholining turli iatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi bariarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiiishi yoki munosabatlarning yomonlashuvi bu bariarorlikning buzilishiga olib keladi, ijtimoiy beiarorlik, siyosiy boshboshdoilik va milliy parokandalikni keltirib chiiaradi, Bunday hol xali tilida «Qosh iryaman deya, krz chiiarish» deb ataladi. Ya'ni, beiarorlik rcholiga moy iuyganlar «O'rmonga rt ketsa, hrlu iurui baravar yonadi» deganlari kabi ish tutadilar.Ular o'zgalarni yondirib bo'lsa-da, rzlari ham kulga aylanadilar.Bu oddiy haiiiatni barchamiz teran anglab yetmoIimiz, bundaylarga qarshi ogoh bo'lmog'imiz lozim.

Ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, hammamizning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, hamda jamiyatning illor vakillari brlgan ziyolilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Barchamiz Vatan ravnaii, yurt tinchligi va xali farovonligini ta'minlash uchun, ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar yetkazishi mumkin brlgan har ianday xavf-xatarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni krmoIimiz darkor. CHunki shu aziz Vatan – barchamizniki, undagi tashvishu g'am, yutuq va kamchiliklar, muvaffaqiyatlar hammamizga tegishlidir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi– umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 milliarddan ziyod aholi mavjud. O'zbekiston hududida esa 130 dan ortii millat va elat vakillari yashamoida.

Har bir millat yaratganning mo''jzasidir.Jahon dinlarining muiaddas kitoblarida iayd etilishicha, Olloh asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloiot iilishi, tanishishi uchun millatlarga brlib irygan. Davlatlar bu borada krpmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega brlib, har biri rziga xosligi bilan bir-biridan fariiiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga rziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib iolishi yoki uyg'un

bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyIunlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraiiiyotning hal iiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiiboli boshia xalilar va mamlakatlarning taraiiiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bolliidir. Xaliimizning «Qo'shning tinch – sen tinch» degan maiolida ana shu haiiiat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, irshni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, bariarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huiiuli munosabat brlmasa, ulardan hech biri rzining porloi istiibolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng iondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamoIimiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. *Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.*

Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi rziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: «Respublika aholisi rrtasida krpchilikni tashkil iiladigan rzbek millatining muiaddas burchi ona tilini, rz milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalilarning taidiri uchun, ularning rziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini sailab iolish uchun, kamol topishi va rzligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul brlishdan ham iboratdir». Bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tulilishiga aslo yrl irymaydi va Vatan ravnaii, yurt tinchligi, xali farovonligi kabi umummilliy

Ioyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoidaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xaliimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga avaylab rtkazib kelinmolda.

Mustaiillik yillarida millatlararo totuvlik Ioyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida irlga kiritilgan eng katta yutuilardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oiilona, xalqaro tamoyillarga mos yrl bilan yechish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini krrdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning krpmillatli xalii ongida «O'zbekiston — yagona Vatan» degan Ioya asosida haiiiiy vatandoshlik tuylusini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yrnalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xaliini millatidan iat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuilarolari tashkil etadi», deb anii belgilab iryilgan. «O'zbekiston xalii» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maisad yrlida mehnat iilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar rrtasidagi o'zaro hurmat, drstlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos brlib xizmat iiladi. Bundan tashiari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi rz hududida istiiomat iiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat iilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda krplab tadbirlar amalga oshirilmolda. Xususan, 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiilashtirish va ularga krmaklashish maisadida O'zbekiston Respublikasi «Baynalmilal madaniyat» markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 100 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Mamlakatimizda istiiomat iilayotgan barcha millat va elatlarining rz ona tilida riishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy riuv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, krplab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, telekrrsatuv va radioeshittirishlar olib

borilayotgani va boshia ishlar ham bu boradagi samarali faoliyatning yaiiol dalilidir.

Qaerdaki millatlararo totuvlik Ioyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, — ular tinchlik va bariarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintalalarida sodir brlayotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Xulosa

Ma'lumki, azal-azaldan ona yurtimizda islom, nasroniylik, iudaviylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub iavlarning rz diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdilidir. Tariximizning eng murakkab, olir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xaliimizning dinlararo ba'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat barpo etilmoida. Qurilayotgan jamiyatning tamoyillari, huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va xaliimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Davlat ijonuniy asosda barcha dinlarga, barcha e'tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergan. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning ijonun asosida, ularning huquqlarini hurmat va himoya qilish asosida olib borilayotgani e'tiqod erkinligini amalda ta'minlamoida. Ayni vaqtda diniy tashkilotlardan ham ijonun oldidagi burch va majburiyatlarini bajarish talab qilinadi. Bu — xaliimizning xohish-qirodasi bilan tanlab olingan to'rtinchi yildir.

Vatanimizda turli dinlar va din vakillari orasida umumbashariy iadiyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim e'tibor berilmoida. Toshkentda qo'qazilgan «Jahon dinlari tinchlik qirlida» xaliaro anjumani buning amaliy isbotidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qndan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoida. Ularning rz faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'qlisida»gi ijonunda rz ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, milliy istiqlol mafkurasining bosh loyasi – xaliimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish orzusini amalga oshirish uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik loyasini amalga oshirishga loy bo'ladigan eng xatarli to'sii — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli loya tuzo'lga tushib iolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoqva yaiin turixdan

ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm loyisi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proi kulfat, ofat-balolar yo'ldirib, oxir-oibatda rzi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, bolshevizm, shovinizm, irichilik loyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik loyasiga iarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni xushyor torttirishi lozim.

Faiat millatlararo totuvlik g'oyasiga tayanib, umumiy maqsadlar yo'lida hamjihat bo'lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek olijanob maisadlarga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
5. Milliy g'oya tartiboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. T, 2006 yil avgust.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodagiga ishonaman..«Fidokorp», 2000 , 8-iyun.
8. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Oliy ta'lim muassasalari uchun qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
9. Mustaqillik. Izoxli ilmiy lug'at. – T.: Sharq, 1998.
10. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – T.: Sharq, 2001.
11. Ibroxim Karimov. Ma'naviyat, falsafa va hayot . – T.: Fan, 2001.
12. Imomnazarova M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. – T., 1996.
13. Imomnazarova M., Eshmuxamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: Toshkent Islom Universiteti. 2001.
14. Ibroximov Abduqaxxor. Bizkim o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari xaqida muloxazalar. – T.: Sharq, 1999.
15. G'oya va mafkura. – T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002.
16. Taraqqiyotning o'zbek modeli. – T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002.
17. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar. – T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002.
18. Bunyodkor g'oyalar. – T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002.
19. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. – T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002.
20. Ma'naviyat. Izohli ilmiy lug'at. – T.: Ma'naviyat, 2010.